

**AXBOROT VOSITALARI JADAL RIVOJINING HOZIRGI GLOBALLASHUV  
SHAROITIDA YOSHLAR TARBIIYASIGA O‘TKAZAYOTGAN SALBIY TA’SIRI HAMDA  
ULARNING OLDINI OLISHDAGI XALQARO VA MILLIY TAJRIBALAR**

**Avazov Tohir Shakarovich**

*Jizax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi  
katta o‘qituvchisi*

Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida salbiy axborotlar to‘liqini to‘g‘risidagi bahs-munozaralar tobora avjiga chiqib bormoqda. Bunda «Men qaysi axborotga tayansam yaxshi bo‘ladi?», «Kim haqu kim nohaq?» qabilidagi savollar erkin jamiyat sari intilayotgan har bir fuqaro oldida o‘zgacha namoyon bo‘lmoqda. Ayni vaqtda geosiyosat markazlari axborot dunyosini o‘z qo‘liga olishda hych qanday harakatlardan qaytmayotganini unutmashimiz ham muhimdir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o‘zi, ko‘pincha sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, u chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Bugungi dunyoda ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya’ni ularning butun kurrai zaminni egallab olish jarayoni shiddat bilan o‘sib bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Aslida axborot sohasidagi globallashuv jamiyat uchun, dunyoning barcha joylaridagi odamlarning o‘zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Lekin axborot globallashuvining salbiy jihatlari borligini ham unutmashimiz kerak. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Bunday vaziyatda o‘z mustaqil fikriga, sobit e’tiqodiga, mustahkam irodasiga va dunyoqarashiga ega bo‘lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishda namoyon bo‘layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Global tarmoqdan foydalanuvchilar auditoriyasining ko‘pchiligi yoshlar ekanligi, ularning ongini va dunyoqarashini yot mazmundagi g‘oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma’lumotlar Internet kontentining katta qismini tashkil etadi. Turli ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, tanishuv saytlarining faoliyat yuritishi yoshlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Ayniqsa, mobil internetdan foydalanuvchilar auditoriyasining ortib borishi turli mazmundagi axborotlarni ochiq olishga keng imkoniyat yaratib bermoqda. Aytish joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda 1294 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritib, ulardan 160 taga yaqini gazeta va jurnallardir. 200ta veb-saytning 30% dan ortig‘i

bolalar va yoshlar mavzusini yoritishga qaratilgan. Jumladan, yoshlar siyosati yunalishida «Yoshlar» va «Sport» telekanallari, Internetdagi «ZiyoNET» yoshlar axborot portali, 2863 ta axborot-resurs markazlari tashkil etilgan, Internetdan foydalanuvchilarning soni 10 millionga yaqin va ularning aksariyati yoshlardir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda internetdan foydalanuvchilarning soni dunyo bo'ylab 2,4 mlrd.ga yetganligi ma'lum qilindi. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot kommunikasiyalarining taraqqiyoti, ko'lamiga ko'ra, zamon bilan hamnafasdir. Yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtlarini, hattoki, ta'lim muassasalarida bo'lish vaqtlarini ham internet klublarida o'tkazmoqda. Natijada Internet ular uchun faqat o'yinlar olamiga aylanib bormoqda. Qolaversa, Internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan ziyod sayd mavjudligi ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Kompyuter o'yinlarini yarmiga yaqini zo'rovonlik va yovuzlikni targ'ib qilmoqda, 42% bola va o'smirlar onlayn fizimi orqali tarqatilayotgan pornografiya ta'siriga butunlay qaram bo'lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola millatchilik ruhidagi veb sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlashgan. Hozirgi zamon yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda – sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda filga oladi. Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruvlar natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda. Mutaxassislarning fikricha, bu – tabiiy holat. Negaki, kundan-kunga internetdan foydalanayotgan oilalar, demak, undan foydalanayotgan farzandlar soni ko'paymoqda. Bunday onlayn hayotda yashaydigan yoshlarning katta qismi Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Bunday holat Germaniya va Fransiyada ham kuzatilmoqda. Darhaqiqat, XXI asr zamonaviy yoshlar hayotiga sezilarli chizgilarni kiritdi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garak va sport seksiyalariga chopgan bo'lsa, bugun ular o'zaro disklar, fleshkalar va axborotni saqlovchi shu kabi boshqa vositalardan imkon boricha tez foydalanishga shoshiladi, yosh avlodning ota-onalariga nisbatan kompyuter savodxonligi baland, ko'pgina olti yashar bolalar blutus va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n yetti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tashviqotlar natijasiga ko'ra, ular sodda ota-onalari o'ylaganidek,

internetdan aksariyat hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o'n nafaridan sakkiz nafari unda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan «filtrlash» dasturini o'rnatib qo'ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog' o'tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettirar ekan. So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, shu yoshda bolalar tabiatan ochiq bo'ladi hamda dunyoga faqat ijobiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Ular o'zlari erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini birovlarga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar. O'smirlar o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladilar. Atrofdagilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan-yangi fikr-g'oyalarni o'rtaga tashlaydilar, ularni amalda qo'llashga intiladilar, biroq bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda, kattalar yordamiga muhtoj. Grifing bilan ko'rashishning eng oddiy usuli – kompyuterga maxsus ta'qiqlovchi dasturlar(eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda o'sha foydalanuvchidan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda, avtomatik ta'qiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin. Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlaridagi ba'zi yoshlar ekstremistik, irqchilik va millatchilik ruhidagi veb-saytlarni muntazam kuzatib borishi natijasida internet orqali ruhiy ta'qibga uchrayotgani ham sir emas. Ispaniya bolalarni himoya qilish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda internetdan muntazam foydalanuvchi

yoshlarning 44 foizi kamida bir marta, 11 foizi esa bir necha marotaba ta'qib ostiga olingan, deyiladi. /EuroNews xabarida/ Avstriyalik vrach Kurosh Yasdi Internetni narkotik sifatida e'lon qilinishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar va internet o'yinlariga tobeklik bu og'ir kasallikdir. Twitter yoki Facebookga kirishdan voz kechish, kokainga o'rganib uni iste'mol qilishdan voz kechishdan ham og'irdir. Rossiyalik psixolog Yu.M.Yevstigneyeva o'smirlarning kompyuter o'yinlariga murojaat qilish sabablarini o'rganadi, uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 36% o'quvchilar kompyuterdagi syujetlarni kundalik hayotda ham qo'llashi, 27 % o'quvchilarning tushlarida kompyuter qahramonlari obrazlari uchrashi, 38% o'quvchilarda esa kompyuter o'yinidan keyin agressivlik, bezovtalik oshishi kuzatilgan<sup>2</sup>. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38% bola zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26% bola esa millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatishini aniqlashgan. Natijada hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish darslari fakultativ sifatida maktab dasturiga kiritila boshlandi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning haqqoniy va to'g'riligini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun juda zarur. Internetda grifingdan tashqari aynan o'smir yoshdagilar uchun yana bir qancha xavflar ham mavjud. Hattoki internet XXI asr vabosi bo'lishi mumkinligi haqida bong urilmoqda. Amerikalik maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini 70 foizini internetga murojaat etish bilan mashg'ul bo'lisharkan. Internetga murojaat qilgan o'quvchilarning 80 foizi esa har xil ko'ngilochar dasturlar va kompyuter o'yinlariga vaqtlarini sarflashar ekan. Buning oqibatida ko'pchilik o'smirlarda asabiylashish, ma'naviy buzuqlik holatlari ko'payib bormoqda. Axir bu holat millat kelajagi halokatga mahkumligidan darak bermaydimi? Xuddi shunday holatlar bizning xalqimizning boshiga ham tushishi mumkin. Globallashuv jarayonida jaxon hamjamiyatining qator mamlakatlari misolida axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi katta xajmdagi axborotni qabul qila olish, qayta ishlash, o'zlashtirish, uni qo'llash vositalari va usullaridan unumli foydalanish uchun inson to'liq tayyor emasligi muammosini keltirib chiqarayotganligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda respublikamiz aholisining 62 foizdan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini e'tiborga olsak, Internet va uning shakllari bo'lgan – internettelevideniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video, ijtimoiy tarmoqlar kabi ko'plab axborot tarqatish texnologiyalari imkoniyatlaridan yoshlarning ma'naviyati va bilim darajasini oshirishda maqsadli va oqilona foydalanish zarurligi ayon bo'ladi. Axborot vositalari jadal rivojining hozirgi globallashuv sharoitida

yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy ta'siridan ham ko'z yuma olmaymiz. Ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, axborot vositalaring yuksak rivojlanishi natijasida Internet, uyali telefon, telekommunikasiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan «qadriyatlar» ko'p hollarda yoshlarni milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'ymoqda; ikkinchidan, yoshlar orasida taqlidchilik, g'arbona ideallarga ko'r-ko'rona ergashish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan kinofilmlar, moda, turli xil reklamalar orqali yoshlarning ongi qamrab olinayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra, kompyuter o'yinlari oldida vaqt o'tkazish odat tusiga kirmoqda. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilarkan, bu jihat "Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri" deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir.